



2022- yilning yanvar-mart oylari uchun Xorazm viloyatida qurilish ishlari




Joriy yilning yanvar-mart oyida Xorazm viloyatida jami **771,9** mldr so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **105,0 %** ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari hajmining tarkibi, %



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan korxona va tashkilotlar tarkibi bo'yicha bo'linadi.

Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-mart oylarida jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **39,0** mlrd so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **122,5 %** ga bajarilgan bo‘lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yilning mos davridagi ko‘rsatkich darajasidan **0,8 %** punktga ko‘paydi va **5,1 %** ni tashkil etdi.



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi, % da




Ma’lumot uchun: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Urganch shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **22,5 %** yoki 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan **106,7 %**), Xonqa tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **7,5 %** yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **114,6 %**) va Xiva tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **9,6 %**, yoki o‘tgan yilning mos davriga nisbatan **73,8 %**) ga to‘g’ri keldi.




Qurilish ishlarining umumiyligi hajmida kichik korxona va mikrofirmalar ulushi

Kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilning yanvar-mart oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **61,9 %** to'g'ri kelib, 2021- yilning yanvar-mart oylari ko'rsatkichiga nisbatan **0,6 %** punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilning mos davriga nisbatan **102,5 %** ni tashkil etgan holda **478,1 mlrd so'm** miqdorida qayd etildi.



Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **33,0 %** ni tashkil etdi yoki **254,9 mlrd so'm** miqdorida qayd etildi. 2021- yilning yanvar-mart oylariga nisbatan o'sish **107,3 %** ni tashkil etdi.

**Qurilish ishlaringning umumi hajmida
norasmiy sektor**



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **47,6** mlrd so'mlik, nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **724,4** mlrd so'mlik qurilish ishlari bajarilib, ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **6,7** % va **93,3** % ni tashkil etdi.

**Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar
tomonidan bajarilgan qurilish ishlari**





**2022- yilning yanvar-mart oylarida
hududlar kesimida mulkchilik shakllari
bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari**

| | Qurilish ishlari hajmi, mlrd so'm | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|------------------------|---|--------------|----------------|---------------|----------------|
| | | mlrd so'm | ulushi % da | mlrd so'm | ulushi % da |
| Xorazm viloyati | 771,9 | 47,6 | 6,2 | 724,4 | 93,8 |
| Urganch sh. | 173,7 | 14,9 | 8,6 | 158,8 | 91,4 |
| Xiva sh. | 48,7 | 3,5 | 7,3 | 45,2 | 92,7 |
| tumanlar: | | | | | |
| Bog'ot | 54,4 | 3,0 | 5,5 | 51,4 | 94,5 |
| Gurlan | 48,4 | 0 | 0 | 48,4 | 100,0 |
| Qo'shko'pir | 50,5 | 3,0 | 5,9 | 47,5 | 94,1 |
| Urganch | 63,1 | 5,0 | 7,9 | 58,1 | 92,1 |
| Hazorasp | 48,1 | 3,5 | 7,4 | 44,6 | 92,6 |
| Tuproqqa'l'a | 38,4 | 3,1 | 8,1 | 35,2 | 91,9 |
| Xonqa | 58,0 | 2,3 | 4,0 | 55,7 | 96,0 |
| Xiva | 73,8 | 0 | 0 | 73,8 | 100,0 |
| Shovot | 45,5 | 3,8 | 8,4 | 41,7 | 91,6 |
| Yangiariq | 38,6 | 2,6 | 6,7 | 36,0 | 93,3 |
| Yangibozor | 30,7 | 2,7 | 8,8 | 28,0 | 91,2 |

Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi
2022- yil yanvar-mart oylari

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining 77,7 % yoki **600,1** mlrd so‘m qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

77,7 %

Yirik qurilish tashkilotlari bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **17,0** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish korxonalarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi 2,2 % ni tashkil etdi.

2,2 %

Kichik korxona va mikrofirmalar bo‘yicha yangi qurilish hisobidan **478,1** mlrd so‘mlik ishlar bajarildi yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi 79,7 % ni tashkil etdi.

79,7 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **240,0** mlrd so‘mni yoki ularning jamiga nisbatan ulushi 40,0 % ni tashkil etdi.

40,0 %




**2022- yilning yanvar-mart oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari**

| | Qurilish ishlari hajmi (mlrd so'm) | O'sish sur'ati, % da | Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya (mlrd so'm) |
|------------------------|---|-------------------------|--|
| Xorazm viloyati | 771,9 | 105,0 | 600,1 |
| Urganch sh. | 173,7 | 106,7 | 144,4 |
| Xiva sh. | 48,7 | 94,7 | 36,9 |
| tumanlar: | | | |
| Bog'ot | 54,4 | 105,8 | 35,4 |
| Gurlan | 48,4 | 138,0 | 40,2 |
| Qo'shko'pir | 50,5 | 107,2 | 30,9 |
| Urganch | 63,1 | 87,4 | 43,3 |
| Hazorasp | 48,1 | 104,3 | 37,5 |
| Tuproqqa'l'a | 38,4 | 161,8 | 31,8 |
| Xonqa | 58,0 | 114,6 | 45,2 |
| Xiva | 73,8 | 90,7 | 58,0 |
| Shovot | 45,5 | 109,8 | 41,8 |
| Yangiariq | 38,6 | 89,9 | 29,3 |
| Yangibozor | 30,7 | 104,1 | 25,4 |

Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
qurilish ishlari

ulushi, % da



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.



**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hududlar
kesimida qurilish ishlari
2022- yil yanvar-mart oylarida**

mlrd s'om

| | Qurilish ishlari hajmi | shu jumladan: | | |
|------------------------|---------------------------|------------------------------------|--------------------------------------|---|
| | | Bino va inshootlar qurilishi | Fuqarolik obyektlari qurilishi | Ixtisoslashti- rilgan qurilish ishlari |
| Xorazm viloyati | 771,9 | 565,6 | 143,0 | 63,3 |
| Urganch sh. | 173,7 | 112,7 | 46,3 | 14,8 |
| Xiva sh. | 48,7 | 29,9 | 14,3 | 4,5 |
| tumanlar: | | | | |
| Bog'ot | 54,4 | 43,9 | 6,8 | 3,7 |
| Gurlan | 48,4 | 36,4 | 2,1 | 9,9 |
| Qo'shko'pir | 50,5 | 40,2 | 8,8 | 1,5 |
| Urganch | 63,1 | 39,2 | 13,3 | 10,6 |
| Hazorasp | 48,1 | 44,0 | 3,6 | 0,5 |
| Tuproqqa'l'a | 38,4 | 25,7 | 10,2 | 2,4 |
| Xonqa | 58,0 | 40,7 | 13,6 | 3,7 |
| Xiva | 73,8 | 61,3 | 9,7 | 2,8 |
| Shovot | 45,5 | 34,3 | 4,3 | 6,9 |
| Yangiariq | 38,6 | 35,1 | 3,4 | 0,1 |
| Yangibozor | 30,7 | 22,2 | 6,6 | 1,9 |

2022- yilning yanvar-mart oylarida
hududlar kesimidagi qurilish ishlari





XORAZM VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xorazm viloyati
statistika boshqarmasi

Investitsiya va qurilish statistikasi
bo‘limi

Aloqa telefoni: (62)224-65-22